

№ 05/2016

ISSN 2010-5932

Sinfdosh

Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan barcha sinfdoshlar jurnali


AKAMNING
TELEFONIDAGI
QIZ

O'SMIR
KO'NGLIGA
KALIT

«TEMIR»
O'QITUVCHI

Rayhon Ulasenova:
Majlisni
qoldirmayman hecham





Mushuk qiynagan bola:

Uni nima qiynagan?

Bolalarda emotsional va xulq-atvor sohasidagi buzilishlar ta'lim tizimida-
gi dolzarb masalalardan.
Chunki bunday bola o'z g'azabini boshqarolmaydi,
o'zining emotsional holati va o'zgalarning his-tuyg'ularini to'liq anglamaydi, xavotirlan-
ish darajasi yuqori. Atrof-
dagilar bilan muloqotga kirishishga qiynaladi va ular bilan tez-tez urishadi. Ular-
da birovlarning mulkiga zi-
yon yetkazish, uydan qochib ketish, sababsiz dars qoldi-
rish, odamlar va hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik kabilar kuzatiladi.

Qizning mushukni qiynashini undagi aggressiv holat bilan izohlash mum-
kin. Agressivlik – shaxsning buzg'unchilikka intilishi mav-
judligi bilan xarakterlanadi.

Bu holatning yuzaga ke-
lishiga bir nechta omillarning ta'siri bor.

Oiladagi nosog'lom muhit,
oilada bolaning o'rni yo'qligi,
bolaga nisbatan qo'pol munosa-
bat, ota-onalarning o'zları

agressiv xulq-atvorga namuna ko'rsatishi, bolani jazolash kabilar unda salbiy munosabatlarni shakllantiradi.

O'z ota-onasidan jismonan zarar ko'rish bola uchun odatiy hol bo'lib qolgan oilalar ham, afsuski, uchrab turadi. Shuning uchun bunday bolalarda aqliy zo'riqish, o'z-o'ziga past baho berish, qo'rquv, boshqa odamlarga nisbatan ishonchszlik holati uchraydi. Jismoniy zarar yetkazish bolaning aggressiv xulq-atvori kuchaytiradi.

bo'ladi.

Ota-onalar tomonidan bolaga mehr yetishmasligi, bo-
lasiga befarq munosabatda bo'lish, bolaning arzimas xatosi tufayli izzat-nafsiga tegadigan so'zlardan foydalanish, haqorat qilish, so'kish, bosh-qalarga jahl qilib boladan ala-
mini olish hollarida bolalarda agressiv xulq-atvor yuzaga keladi. Buning oqibatida bolalarda psixik buzilishlar vu-
judga keladi. Buzilishda g'a-
zab ta'siri o'sib boradi.

Qizchadagi agressiv ho-
latning ko'rinishlaridan biri
m u s h u k k a
nisbatan be-
shafqat (atay-
lab ozor bera-
di) bo'lishidir.
Mazkur holat

bolada 6 oy va undan
ko'p vaqt mobaynida namoy-
on bo'lsa, bolada agressivlik
mavjud deb baholash mum-
kin.

Va, albatta, qizchani psi-
xolog ko'rigiga olib borish tavsiya etiladi.

*Qizim jonivorlarni
qiynashni yaxshi ko'radi.
Hali qushlarning patini
yuladi, hali mushukni
qiynayotgan bo'ladi.
Unga bu to'g'ri emasli-
gini tushuntirsam ham,
baribir o'z bilgani-
dan qolmayapti.
Ayting-chi, undagi
bu holatning asl
sababi nima bo'li-
shi mumkin?
Odina, Toshkent
shahri*

Agressiya – bir kishi tomoni-
dan ikkinchi bir kishiga
ko'rsatilgan jismoniy harakat yoki
tahdid bo'lib, u ikkinchi kishining
erkinligiga tahdid soladi.

B o -
lalardagi agressiya
ota-onaning ajralib ketishi
oqibatida ham kelib chiqishi
mumkin. Bunday holatning
yuzaga kelishi bolaning yoshi
va jinsidan qat'i nazar sodir

*Psixologiya fanlari nomzodi Damegul Arapbayeva,
tavsiyalari asosida Zuhra tayyorladi. 9*